

# O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

UO'K(UDC, YDK): 82.01/.09

## XARAKTER YARATISHDA ASAR TILINING O'RNI ("BOBURNOMA" MISOLIDA)

**Muhammadzokirova Mohinur Muhtorjon qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: [mohinurmuhammadzokirova@gmail.com](mailto:mohinurmuhammadzokirova@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0008-4741-0361*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida xarakter yaratishda asar tilining o'ziga xosligi tadqiq etiladi. Asar tilining soddaligi, tabiiyligi, ixchamligi va mazmuniy teranligi shaxs obrazini shakllantirishning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, muallifning kam so'z orqali keng va chuqur mazmun ifodalash mahorati, shaxslar tasvirida badiiy detal, adabiy ishora, personajlarning o'qigan yoki yaratgan asarlarini tilga olish hamda she'riy parchalarni keltirish kabi usullardan foydalanishi yoritiladi. Ushbu poetik vositalarning personajlarning individual qiyofasi, ma'naviy-ruhiy dunyosi, estetik didi va dunyoqarashini ochib berishdagi funksional xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida "Boburnoma" tilining nafaqat voqea-hodisalarni bayon etuvchi, balki tarixiy shaxslar xarakterini individuallashtiruvchi va obrazning badiiy yaxlitligini ta'minlovchi muhim poetik vosita ekanligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** so'z, badiiy asar tili, xarakter, realistik proza, "Boburnoma", ijroz san'ati, badiiy asarlar, she'riy parchalar.

### **Kirish**

Badiiy asar maydonga kelishining asosi – so'zdir. Zero, har qanday adabiy-badiiy asar faqat so'z vositasidagina vujudga keladi. "Bu abadiy o'zgarmas haqiqatdir" [1, 234]. Ya'ni adabiy-badiiy asar ijodkorning ana shunday sirli hodisadan unumli foydalanishi natijasi o'laroq yuzaga keladi. Shoir, adibning adabiy-badiiy asar yaratishdagi so'zdan foydalanishi, badiiy mahorati borasida fikr bildirilganda "badiiy asar tili" iborasi qo'llaniladi.

Badiiy asar tili muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so'zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so'zlar, jargonlar neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik munosabat, ritorik so'roq) kabilardan tarkib topadi. Bu unsurlar badiiy asar tilining jozibali va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi [2, 66].

Badiiy asar, avvalo, inson qiyofasini gavdalantirishi, uning surati va siyratini aks ettirishi bilan ta'sirchan ekanligi ma'lum. Ijodkor inson obrazini



yaratish uchun tilning turli shakl, ko'rinishlaridan foydalanadi. U shevaga xos so'zlarni, kasb-korga oid atamalarni, kishi nutqining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi iboralarni qo'llaydi. Biroq har bir ijodkor tilning cheksiz imkoniyatlaridan o'z qurbi darajasida, iste'dodi, yo'nalishi ko'lamida foydalanadi. Hayotda bironing nutqi boshqa bir kishining gapirishidan farqlangani singari, yozuvchi, shoirlarning asarlari tili ham qator o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi [1, 236].

Adabiyot nazariyasida realistik proza haqida quyidagicha fikr bildiriladi: "So'z bilan surat chizish" degan obrazli ibora realistik tasvirda badiiy tilning mavqeini aniq belgilab beradi. Qalamga olingan har bir odamni, har bir ashyoni, har bir makonni ko'zga yaqqol ko'rinadigan qilib tasvirlash uchun yozuvchi eng avvalo o'sha odam, o'sha ashyo va o'sha joyni xayolida juda aniq va to'la-to'kis gavdalandiradi. Keyin ularni qog'ozga ham tirik va ta'sirli qilib gavdalandirib berish uchun so'z va iboralar izlaydi" [3, 241]. Asosan, Abdulla Qahhor va Oybek prozasiga taalluqli bo'lgan ushbu fikr "Boburnoma"dagi realistik tasvirga uncha mos kelmaydi. Boisi, Bobur o'z asarini oldindan rejalab, voqealarni hayolida juda aniq, to'la-to'kis tasavvur qilib yozmagan, "obraz va personajlarni oldindan belgilamagan, hayotning o'zi unga ularni yetkazgan va fikr bildirishga undagan" [4, 251].

#### **Asosiy Qism**

"Boburnoma" yaratilgan va undan oldingi davrlarda ham fikrni ifodalashda badiiy tasvir va ifoda vositalaridan keng foydalanish mahorat belgisi hisoblangan. "Boburnoma"da badiiy tasvir va ifoda vositalari keng miqyosda qo'llanilmagan. Garchi muallif ayrim o'rinlarda tashbeh, istiora, majoz, tarix aytish, mubolag'a hamda lirik chekinish kabilardan foydalangan bo'lsa-da, asarning umumiy ruhida jimjimadorlikdan tiyilish hamda voqelikni hayotiy tasvirlash ustuvorlik qiladi. Ingliz tarixchisi Elfinston ushbu asar haqida fikr yuritarkan: "Bu xotiralarda buyuk turkiy podshoning hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tuyg'ulari har qanday mubolag'a va pardalashlardan xoli. Uning uslubi oddiy va mardona, shuningdek, jonli va obrazli." – deganida rostlikda anga hech xilof yo'q erdi.

Asarning muhim badiiy-uslubiy xususiyatlaridan yana biri kam so'z vositasida keng va chuqur ma'no ifodalash san'atining yuksak darajada namoyon bo'lishidir. "Bobur oz so'z bilan keng qamrovli fikrni bayon etishga, so'zlarni tanlab ishlatishga hamda ortiqcha so'zlarni qalashtirmaslikka intiladi. Sinonim, omonim va antonim so'zlardan keng va o'rinli foydalanadi. Bobur ko'pincha sodda gap shaklini qo'llaydi, uning qo'shma gaplari, tuzilish jihatdan sodda bo'lib, osonlik bilan tarkibiy qismlarga bo'linadi" [10, 607]. "Kam so'zda ko'p fikr bayoni mumtoz poetikada "iyjoz" deyiladi... Boburning nasri ta'sirli, ohangli, she'rli, mahobatli, sajli, tavze'li, latofatli, o'xshatishli; unda tavsif bilan tasvir uyg'unlashadi. Ora-orada lirik pafos bilan bezatilgan, ayni damda tragizm bilan sug'orilgan "Boburnoma" o'zbek mumtoz



nasrining fasohat va balogʻat naʼmunasi, ijjoz maqomidagi betakror asar”dir [9, 25]. Tasvirdagi ushbu ixchamlilik asar tilining tabiiyligi va samimiyligini taʼminlaydi. Ana shu jihatlar “Boburnoma”ni boshqa adabiy asarlardan yaqqol ajratib turadi.

Xarakter muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni oʻzida uygʻun mujassam etgan inson obrazi [5, 352] hisoblanadi. Boburning xarakter yaratish mahorati “Boburnoma” asarining yetakchi uslubiy xususiyatlaridan biridir. Bu borada Ingliz tarixchisi Elfinston shunday deydi: “Bobur gavdalanitrgan har qaysi shaxsning tashqi qiyofasi, kiyimi, qiligʻi va zavqi shunday batafsil va haqqoniy tasvirlanganki, uni oʻqiganda, biz goʻyoki shu odamlar orasida yashaganday boʻlamiz va ularning siymosi bilan birga xarakterini ham bilib olamiz”. Darhaqiqat, asarda tasvirlangan har bir xarakter badiiy bezakdorlik, jimjimadorlikdan xoli (qoʻllanilganda ham oʻta oʻrinli, maqsadga muvofiq holda foydalanilgan). Hayotiylik, xolislik va reallik tamoyillariga tayangan holda tasvirlanadi. Mazkur tamoyil Boburning Humoyunga bitgan maktubida ham oʻz ifodasini topgan: “Takalluf qilay deysen, ul jihattin mugʻlaq boʻladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq boʻlur va ham oʻqugʻuchigʻa” [6, 501]. Shuningdek, ular real tarixiy sharoit, ijtimoiy muhit va insoniy munosabatlar fonida, ijobiy va salbiy jihatlari tabiiy uygʻunlikda yoritiladi.

Bobur oʻz oʻgʻli Humoyun Mirzoni oʻz ifodasi bilan aytganda “ravshan va pok alfoz”da, qisqa va maʼnodor tarzda, adabiyotshunos olim B. Karimov taʼbiri bilan aytganda, “soʻzi kam, maʼnosi oʻktam” tarzda tasvirlaydi: “Va alhaq suhbatta bebadal erdi va insoni komil kim derlar, oʻshal erdi” [6, 554]. Muallif ushbu qisqa ifoda orqali Humoyun mirzoning nutq madaniyatini, fikr ifodalash mahoratini, suhbatda samimiy ekanligini taʼkidlaydi. Shu bilan birga sharq falsafasidagi “komil inson” idealiga mos keluvchi mukammal shaxs sifatida baholaydi. “Insoni komil” tushunchasi – aql, axloq, ilm, adolat va ruhiy poklik uygʻunlashgan shaxsni anglatishini eʼtiborga olsak, muallifning tasviriy mahorati alohida tahsinga loyiq. U mazkur murakkab va koʻp qatlamli falsafiy tushunchani atigi bir necha soʻz vositasida ifodalash orqali yuksak badiiy umumlashtirish darajasiga erishadi.

Taʼkidlash joizki, ushbu qisqa tasvirda Boburning otalik mehr-muhabbati ham nozik tarzda seziladi. U oʻgʻlini ortiqcha maqtov bilan emas, balki badiiy va falsafiy yuklama kuchli boʻlgan iboralar orqali ulugʻlaydi.

Muallif ayrim oʻrinlarda tarixiy shaxslar tasvirida ular sevib oʻqiydigan yoki oʻzlari tomonidan yaratilgan asarlarning nomlarini tilga oladi. Maʼlumki, yaxshi kitob inson umrining maʼnaviy ziynati, uning ruhiy kamolotini bezovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shaxsning madaniy, ilmiy hamda maʼnaviy-maʼrifiy saviyasi, koʻp jihatdan, u mutolaa qilgan yoki yaratgan asarlar doirasi bilan belgilanadi. Tasvir davomida keltirilgan ushbu tafsilotlar



tarixiy shaxslarning ma'naviy qiyofasini yanada mukammallashtirib, ularning siymosiga o'ziga xos salobat va mahobat baxsh etadi.

Xususan, muallif otasi Umarshayx mirzoni ta'riflar ekan yozadi: "Ravon savodi bor edi. "Xamsatayn" va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o'qub edi. Aksar "Shohnoma" o'qur edi" [6, 14]. Ushbu qisqa tafsilot orqali Umarshayx mirzoning badiiy-estetik didi, tarixiy-siyosiy tafakkuri hamda hukmdorga xos ma'naviy fazilatlarini yaxlit holda ochib bergan bo'lsa, Navoiyga oid sahifalarda "Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida, yana bir "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lisonut-tayr" otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoid ul-kibar" otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor" [6, 240] – deya Navoiy qalamiga mansub asarlarni nomma-nom keltiradi. Asar nomlari keltirilishining o'ziyoq turkiy tilda hech kim Navoiychalik "ko'p va xo'b" yozgan emasligini, Alisher Navoiy turkiy adabiy tilining asoschisi va uni yuksak cho'qqiga olib chiqqan ulug' siymo ekanligining yaqqol dalili va inkor etib bo'lmas isboti sifatida namoyon bo'ladi.

Hasan Ali Jaloyir xarakterini yaratishda ham uning ijodiy qirralari tasviri alohida o'ringa ega: "Hasan Ali Jaloyir Sulton Husayn mirzo qoshida qushbegi edi, shoir edi. "Tufayliy" taxallus qilur edi, qasidani bisyor yaxshi aytur edi. O'z zamonida qasidada saromad edi" [6, 246]. Hasan Ali Jaloyir shaxsiyatidagi behayolik, isroforlik, o'yinbozlik kabi illatlar ochiq tilga olinsa-da, "Yaxshi aytur edi", "qasidada saromad edi" iboralari orqali uning adabiy salohiyati va ijtimoiy mavqei alohida e'tirof etiladi.

Mullo Abdulg'afur Loriy haqida gap ketganda esa, Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" asari tilga olinadi: "Yana Mullo Abdulg'afur Loriy edi. Mavlono Abdurrahmon Jomiyning ham muridi, ham shogirdi edi... "Nafahot"qa sharh yo'sunluk bir nima bitibtur" [6, 252]. Avvalo, ushbu tasavvuf tarixiga bag'ishlangan asar orqali Mullo Abdulg'afurning ilmiy saviyasi ko'rsatiladi, ya'nikim, uning diniy va dunyoviy ilmlarning bilimdoni ekanligi o'z isbotini topadi. Chunki mazkur asarni o'qish va, ayniqsa, unga sharh yozish chuqur bilim, diniy-ilmiy tayyorgarlik talab qiladi. Shuningdek, berilgan ma'lumot Mullo Abdulg'afur Loriyning ijodkorlik salohiyatini ham ifodalaydi. Sababi har qanday asarga sharh yozish – uni chuqur tushunish, mustaqil fikr yuritish va boshqalarga izohlab bera olish qobiliyatini taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, asarda kitob va ilm bilan bog'liq tafsilotlar har doim ham shaxsning ijobiy qiyofasini ochishga xizmat qilavermaydi. Aksincha, muallif mahorati bilan ular qahramonning salbiy jihatlarini ham nozik va ishonarli tarzda fosh etuvchi vositaga aylanadi. Xususan, Kamoliddin Husayn Gozurgohiy tavsifida ham mazkur tafsilotlar orqali shaxs qiyofasining murakkab, hatto ayrim jihatdan salbiy tomonlari ochib beriladi: "Yana Kamoliddin Husayn Gozurgohiy edi... Bir tasnifi bor: "Majolis ul-ushshoq"



otliq. Sulton Husayn mirzoning otig'a bog'lab bitibtur. Bisyor sust va aksar yolg'on va bemaza beadabona harflar bitibtur. Andoqkim ba'zidin tavahhumi kufrdur. Nechukkim, xeyli anbiyoni va avliyoni majoziy oshiqliqqa mansub qilib, har qaysig'a ma'shuq va mahbube paydo qilibtur. Yana bu ajab go'lona amredurkim, debochada Sulton Husayn mirzo, o'zumning tahrir va tavsifimdur, deb bitibdur. Kitob orasida kelturilgan Kamoliddin Husaynning ash'or va g'azaliyotining boshida tamom "limuharririhi" bitilibdur" [6, 248].

Avvalo, muallif Kamoliddin Husayn Gozurgohiy tavsifida uning "Majolis ul-ushshoq" asarini tilga olar ekan, uning maqsadi shaxsni ilmiy-ijodiy faoliyat asosida baholash ekanligini payqash qiyin emas. Asarga berilgan "bisyor sust", "aksar yolg'on", "bemaza", "beadabona" kabi keskin baholar Gozurgohiyning ijodiy salohiyati sust, badiiy tafakkuri cheklangan va rostgo'ylikdan yiroq shaxs ekanligini ko'rsatadi. Asarda nabiy va avliyolarni "majoziy oshiqliqqa" mansub qilib, ularning har biriga ma'shuq va mahbub ko'rsatilishi muallif nazarida jiddiy ma'naviy og'ish sifatida baholanadi: "Andoqkim ba'zidin tavahhumi kufrdur". Shuningdek, Kamoliddin Husaynning mazkur asarni hukmdor Sulton Husayn mirzoning o'z asari sifatida ko'rsatishga urinishi uning riyokorligi, manfaatparastligi va maqtoevaziga mavqe orttirishga intiluvchi shaxs ekanligini fosh etadi.

Muhammad Solih xarakterining yaratilishida esa shaxsning axloqi va ijodi o'rtasidagi mutanosiblik yaqqol ko'zga tashlanadi. Dastlab Shayboniyxonga atab ramali musaddasi maxbun – "Subha" vaznida yaratilgan turkiy doston haqida gap boradi: "Shayboniyxonning otig'a bir turkiy masnaviy bitibtur. "Ramali musaddasi maxbun" vaznidakim, "Subha" vazni bo'lg'ay, bisyor sust va furudtur, ani o'qig'on kishi Muhammad Solihning she'ridin bee'tiqod bo'lur" [6, 256]. So'ng esa uning tabiatiga xos illatlar tilga olinadi: "Sharir va zolim tab' va berahm kishi edi" [6, 256]. Nazarimizda Bobur insonning tabiati uning qalamiga ko'chmay qolmasligini, Muhammad Solihning xulqidagi "yaramaslik" va "berahmlik" uning ijodidagi samimiyatni o'ldirganligini, shoirning asari "silliqlik" bo'lishi mumkin, lekin unda ruh va hayotiylik bo'lmasligini, shu sababdan doston "sust" va "bo'shtob" chiqqanligini ta'kidlamog'chidek go'yo. Muhammad Solih qalamiga mansub mazkur doston haqida berilgan ma'lumot orqali uning nafaqat badxulq shaxs, balki o'zi da'vo qilganidek buyuk ijodkor ham emasligi va uning jamiyatdagi mavqei fosh etiladi. Shunday qilib, asarning tilga olinishi – bu shoirning axloqiy, ma'naviy qiyofasiga berilgan yakuniy badiiy hukmdir.

Xarakter yaratishning Boburona usullaridan yana biri bu she'riy parchalardan mahorat bilan o'rinli foydalanishdir. Aksariyat o'rinlarda Bobur qahramonlar xarakterini ochib berishda uzundan uzoq ta'riflardan ko'ra, o'rinli bir she'riy parchani keltirishni afzal ko'radi. Xususan, hijriy to'qqiz yuz o'n uchinchi yil voqealari bayonida keltirilishicha, Bobur ikki ming kishilik lashkar bilan olti-yetti ming kishilik lashkarga ega dushman ustidan g'alaba qozonib,



Qandahorni egallaydi. Qandahorni egallagach, Qosimbek “Qandahor navohisida ko‘p turarimizni saloh ko‘rmay, ayta-ayta muhassilliqlari bila ko‘chturdi. Nechukkim mazkur bo‘ldi. Qandahorni Nosir mirzog‘a inoyat qilib, Nosir mirzog‘a ruxsat berib, Kobul azimati qilildi” [6, 301].

Olti-yetti kundan so‘ng Nosir mirzoning navkarlaridan biri Shayboqxon kelib, Qandahorni qamal qilgani haqida xabar keltiradi. Shayboqxon Shohbek va Muqimning ig‘vo va tezlashlari bilan Boburni Qandahorda deb o‘ylab, mazkur hudud ustiga yurish qilgan edi. “... ushmuni mulohaza qilib, Qosimbek tajribaliq kishi muhassilliqlar bila Qandahordin bizni ko‘churdi” [6, 301].

Ushbu voqea tasviridan keyin muallif Qosimbek sharafiga sahifalab ta‘rif-u tavsiflar, tahsin, tasannolar, madhu sanolar o‘qishi mumkin edi, biroq u bitta mo‘jaz she‘riy parcha bilan kifoyalanadi:

Harchi dar oina javon binad,

Pir dar xisht puxta on binad [6, 301].

Mazmuni: Yosh kishi oyinaga qarab ko‘rgan narsani keksa odam pishiq g‘ishtga qarab ko‘ra oladi [7, 161].

Muallif she‘riy parchani shunday mahorat bilan qo‘llaydiki, u uzundan-uzoq ta‘rif-u tavsiflarga o‘rin qoldirmay, Qosimbek xarakterining yetakchi qirralari va donishmandona tabiatini mukammal ochib beradi. Ushbu she‘riy parchani Qosimbekning naqadar tajribali, hayot ko‘rgan, strategik va uzoqni ko‘ra biladigan sarkarda ekanligining badiiy tasdig‘i sifatida qabul qilish o‘rinlidir.

G‘ozixon xarakteriga chizgi beruvchi quyidagi she‘riy parcha ham g‘oyat mahorat bilan qo‘llangan:

Mabin on behamivatro ki hargiz

Naxohad did ro‘yi nekbaxtiy,

Tan osoni guzinad xeshtanro,

Zan-u farzand biguzorad ba saxtiy [6, 372].

Mazmuni: Unday behamiyatni ko‘rma, u hech qachon xushbaxtlik yuzini ko‘rmaydi. U o‘z gavdasini qutqarib, xotin, bola-chaqasini yomon holda qoldiradi [7, 195].

Asarda keltirilishicha, Bobur Malo‘t qo‘rg‘onini egallagach, G‘ozixon oila a‘zolarini tashlab, sanoqli yigitlari bilan toqqa qarab qochadi: “G‘ozixonni qo‘rg‘onda tasavvur qilur eduk, ul behamiyat nomard ota, og‘a, inisini va ona-egachi-sing‘lini Milvatta tashlab, ma‘dude bila tog‘ sari qochibtur” [6, 372].

Nasriy matnda G‘ozixon shaxsiga nisbatan faqatgina behamiyat, nomard degan tavsif berilgan bo‘lsa, undan so‘ng keltirilgan she‘riy parcha personajning xarakter mantig‘ini tugal shakllantirib, uning xudbin, qo‘rqoq va ma‘naviy qashshoq tabiatini butun borlig‘icha fosh etadi. Birinchi satrdayoq qahramonning eng asosiy salbiy sifati ochiqqlanadi – behamiyatlik, or-nomusning yo‘qligi. Sharq falsafasida yaqinlariga xiyonat qilgan, nomussiz



kishi hech qachon baxt topmasligi, uning umri tushkunlik va xorlikda o'tishi ta'kidlanadi. Bu G'ozixonning kelajakdagi fojeaviy qismatiga ishoradir. Keyingi satrlarda G'ozixon xarakteridagi xudbinlik va jonshirinlik fosh etiladi. Sharqona oilaviy va harbiy etika qoidalari ko'ra, erkak kishi, sarkarda o'z qaramog'idagilarni, ayniqsa o'zizlarni (ayoli, farzandlari, ona-singillarini) himoya qilishi shart. G'ozixon esa ularni dushman qo'lga tashlab, faqat o'z joni qayg'usida qochgan. Bu uning tubanligini bor bo'yi bilan ko'rsatadi.

Bobur o'zining shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, uning qilmishini qoralaydi. She'riy parcha orqali o'quvchiga "Erkak kishi har qanday qiyin vaziyatda ham oilasi va nomusini himoya qilishi shart" degan hayotiy darsni beradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, asar tilining sodda, ravon va jimjimadorlikdan xoli ekanligi xarakter yaratishning muhim poetik vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Muallif ortiqcha tasviriyl vositalarga berilmagan holda, kam so'z orqali shaxsning xarakteri, dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy qiyofasi va individual xususiyatlarini keng hamda chuqur ochib berishga erishadi. Ayniqsa, ayrim shaxslar tavsifida ularning sevib o'qigan yoki o'zlari yaratgan asarlarining tilga olinishi qahramonning nafaqat adabiy didi, balki intellektual saviyasi, qiziqishlari va ma'naviy olamini yoritishga xizmat qiladi. Shuningdek, she'riy parchalar va iqtiboslarning qo'llanishi ham obrazlarning ichki dunyosini ochish, ularning estetik qarashlari va ruhiy holatini ifodalashda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Demak, asar tilining ixchamligi, tabiiyligi va mazmunan teranligi muallifga shaxs qiyofasini tashqi belgilar bilangina emas, balki uning nutqi, didi, ijodiy faoliyati va ma'naviy dunyosi orqali ham to'laqonli gavdalantirish imkonini bergan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. – 304 b.
2. To'rayeva B. Adabiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 141 b.
3. Adabiyot nazariyasi. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – 278 b.
4. Qudratullayev H. "Boburnoma"ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili (Navoiy, Bobur, Xondamir va Vosifiy nasrining qiyosiy tahlili asosida). Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1998. – 355 b.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Ijod press, 2019. -576 b.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. (Tabdil). – T.: O'qituvchi, 2008. – 288 b.



## **O‘ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI**

8. Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadir. – T.: “Yozuvchi”, 1997. – 72 b.
9. Bahodir Karim. Ikki daho – ikki bebaho. – “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – 25 b.
10. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б. 607.